

KIBERJINOYATLARNI OLDINI OLISH VA UNDAN HIMOYALANISH USULLARI

Kurambaev Toxir Xosinbaevich

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tergov faoliyati kafedrası katta o'qituvchisi**

Po'latov Asilbek Ilyos o'gli

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-bosqich kursanti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11147838>

Annotatsiya: Maqolada dunyoda hozirgi kunda tez rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilik sodir etilish turlari va jamiyatni axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishdan samarali himoya qilish muammolari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, axborot, kiberjinoyatchilik, kiberxujum, axborot tashuvchi, komputer, axborot makoni.

Hozirgi rivojlangan XXI-asrda hayotimizni zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilishimiz qiyin shu jumladan yashash tarzimizni osonlashtirgan, foydali taraflari ko'p bo'lgan bilan albatta foydasiz taraflari ham bor. Dunyoda, aniqrog'i, insoniyat hayoti faoliyati davomida axborot texnologiyalari sohasi keng tarqalganligi bilan bir qatorda, tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatni axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishdan samarali himoya qilish muammosini keltirib chiqarmoqda.

Globallashuv va raqamlashtirish dunyo hamjamiyati iqtisodiyoti va ilm-fani uchun rivojlantiruvchi vosita bo'libgina qolmay, balki jinoyatlarni, jumladan, kibermakondagi jinoyatlarni, sodir etish bo'yicha zamonaviy mexanizmlarnirivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Yevropol ekspertlarining tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki,raqamli makonda jinoyatlar ko'лами tobora oshib, kibertahdidlar ro'yxatitobora kengayib bormoqda. Xususan, hozirgi paytda, huquqbuzarlar komp'yuter texnologiyalari yordamida konkret jinoyatlarni (fishing, spam tarqatish, komp'yuter ma'lumotlariga noqonuniy (ruxsatsiz) kirish, komp'yuter sabotajiva boshqalar) ham kibernetik bo'lmagan boshqa og'ir jinoyatlarni (noqonuniydaromadlarni legallashtirish, giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi qurollar savdosi va boshqalar) ham sodir etishlari mumkin.

Axborot texnologiyalari yordamida bank faoliyati, iqtisodiyot, havo kemalarini boshqarish amalga oshirilmoqda, katta hajmli ma'lumotlarni yaratish, to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog'liq komputer sohasida ishlatilmaydigan biror-bir faoliyat turi qolmadi. Axborot texnologiyalari nafaqat ma'lumot, u yoki bu hodisa to'g'risida bilim olish, balki butun jamiyatni boshqarishning asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda "axborot makoni" degan tushuncha vujudga kelgan va bu makonda asosiy o'rinni kompyuter tizimlari egallaydi. Chunki ular yordamida turli manbalardagi ma'lumotlarni integratsiyalash va qayta ishlash imkoni mavjud. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bu sohada jinoyatchilikning yangi turlari vujudga kelishi ham tabiiy hol.

Axborot texnologiyalari rivojining hozirgi bosqichida, axborot texnologiyalari kun sayin hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olayotgan bir sharoitda mazkur sohani tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chunki, axborot texnologiyalari tizimi rivojlangani sayin huquqbuzarliklarning ham yangi turlari kirib

kelmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavfli bo'lib, axborotlashtirish qoidalarini buzish, kompyuter axborotidan, tizimidan qonunga xilof ravishda foydalanish, kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, kompyuter sabotaji, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish kabi harakatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek ushbu turdagi jinoyatlarga kiberjinoyatchilik tushunchasi ham ishlatib kelinadi. Kiberjinoyat virtual makondagi ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, uni kompyuter texnologiyalari va boshqa axborot telekommunikatsiya vositalari yordamida modellashtirilgan kiberjinoyat deb ta'riflash mumkin.

Kiberxavfsizlik - bu kompyuterlar, serverlar, mobil qurilmalar, elektron tizimlar, tarmoqlar va ma'lumotlarni zararli hujumlardan himoya qilish amaliyotidir. U axborot texnologiyalari xavfsizligi yoki elektron axborot xavfsizligi sifatida ham tanilgan. Bu atama biznesdan tortib mobil hisoblashgacha bo'lgan turli kontekstlarda qo'llaniladi va bir necha umumiy toifalarga bo'linishi mumkin. Odatda, kiberxavfsizlik quyidagilarni anglatadi: shaxslar, *kiberxavfsizlik* ularning shaxsiy ma'lumotlari o'zi va o'zlari shunday vakolatga ega bo'lganlardan boshqa hech kim uchun mavjud emasligini va ularning kompyuterlari to'g'ri ishlashini va zarar dasturlardan xoli ekanligi, kichik biznes egalari, kiberxavfsizlik kredit karta ma'lumotlari to'g'ri himoyalanganligini va ma'lumotlar xavfsizligi standartlari savdo nuqtalari registrilarida to'g'ri bajarilishini ta'minlashni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, onlayn biznes olib boradigan firmalar, *kiberxavfsizlik* o'z ichiga ishonchli serverlar bilan doimiy ishlaydigan serverlarni himoya qilish kiradi. Yani, kiberxavfsizlik bu o'z navbatida ko'plab turli tashkilotlarga tegishli bo'lgan ko'plab virtual serverlarga ega bo'lgan ko'p sonli serverlarni o'z ichiga olgan ko'plab ma'lumot markazlarini himoya qilishni talab qilishi mumkin.

Axborot xavfsizligi saqlashda ham, tranzitda ham ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiylikni himoya qiladi. Operatsion xavfsizlik ma'lumotlar aktivlari bilan ishlash va himoya qilish jarayonlari va qarorlarini o'z ichiga oladi. Foydalanuvchilarning tarmoqqa kirishda ega bo'lgan ruxsatlari va ma'lumotlarning qanday va qayerda saqlanishi yoki baham ko'rilishini belgilovchi protseduralar shu soyabon ostidadir.

Tarmoq xavfsizligi - bu maqsadli hujumchilar yoki opportunistik zararli dasturlardan qat'iy nazar, kompyuter tarmog'ini buzg'unchilardan himoya qilish amaliyotidir.

Favqulodda vaziyatlarni tiklash va biznesning uzluksizligi tashkilotning kiberxavfsizlik hodisasiga yoki operatsiyalar yoki ma'lumotlarning yo'qolishiga olib keladigan boshqa hodisaga qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi. Favqulodda vaziyatlarni tiklash siyosati tashkilotning o'z operatsiyalari va ma'lumotlarini voqeadan oldingi kabi ishlash qobiliyatiga qaytishi uchun qanday tiklashini belgilaydi. Biznesning uzluksizligi - bu ma'lum manbalarsiz ishlashga urinayotganda tashkilot orqaga tushadigan rejadir.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar muayyan sharoitlarda sodir etiladi, ularning sodir etilishiga yordam beradigan omillar mavjud. Ularni aniqlash va ilmiy tahlil asosida sud ekspertiza usulini, tegishli tergov harakatlarini o'tkazish taktikasini ishlab chiqish kerak.

Kibermakonda sodir etilgan ushbu jinoyatlar kompyuterlar, kompyuter dasturlari, kompyuter tarmoqlari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish, kompyuter ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, nusxa olish, o'zgartirish, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari yordamida yoki ular orqali sodir etilgan boshqa noqonuniy ijtimoiy xavfli harakatlardir.

Kiberjinoyatlar muayyan sharoitlarda sodir etiladi, ularning sodir etilishiga yordam beradigan omillar mavjud. Ularni aniqlash va ilmiy tahlil asosida sud ekspertiza usulini, tegishli tergov harakatlarini o'tkazish taktikasini ishlab chiqish kerak.

Axborot texnologiyalarisohasida sodir etilgan ushbu jinoyatlar kompyuterlar, kompyuter dasturlari, kompyuter tarmoqlari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish, kompyuter ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, nusxa olish, o'zgartirish, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari yordamida yoki ular orqali sodir etilgan boshqa noqonuniy ijtimoiy xavfli harakatlardir.

Ma'lumotlarga qaraganda, kiberjinoyatchilik bir yilda dunyo iqtisodiyotiga o'rtacha 26 milliard dollar miqdorida zarar yetkazmoqda. Bugun internetdan foydalanuvchilar soni 3,5 milliarddan oshgan. Shuningdek, 20 milliardga yaqin qurilmalar internetga ulangan holda ishlamoqda. Bu esa kiberhujumlarning qanchalik jiddiyligini ko'rsatadi.

Kiberhujumning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bu firibgarlik yo'li bilan plastik kartochkalardan pul o'marish, kimlarnidir qaqshatib, osongina mo'may daromadga ega bo'lish hisoblanadi. Yaqinda Buyuk Britaniyaning tadqiqot kompaniyasi tomonidan kiberxavfsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan 60 ta davlat reytingi e'lon qilindi. Yaponiya yetakchi bo'lgan ushbu ro'yxatda O'zbekiston 56-o'rinni egallagan. Bu borada yurtimizda birgina o'tgan 2021 yilda 2700 dan ortiq, joriy yilda 300 dan ortiq murojaatlar bo'lgan, kiberjinoyatchilikka qarshi muayyan choralar ko'rilmogda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odamlar salomatligi va hayotiga bo'lgan tahdidlarning yangi turlarini, shu jumladan jabrlanuvchilarga psixologik ta'sirning yangi usullarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Internet yordamida, jinoyatchilar qurbonlarning ruhiyatiga ta'sir qilib, ularni o'z joniga qasd qilishga undaydi. Bunday holatlarga moyilligi eng yuqori bo'lgan qurbonlar toifasi — bu bolalar va o'smirlardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning xavfi shundaki, mudofaa, ishlab chiqarish, iqtisodiy, bank va boshqa maqsadlardagi murakkab kompyuter tizimlarining boshqaruv sensorlari bilan bog'liq harakatlar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarning yo'q qilinishi, bloklanishi, modifikatsiyasi odamlarning o'limiga va ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi, mulkni yo'q qilishi, kata miqyosda iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga internet orqali zararli viruslarning tarqalishi, parollarni buzish, bank kartalari raqamlari va boshqa bank ma'lumotlarini o'g'rilash, fishing, noqonuniy ma'lumotlarni tarqatish (tuhmat, pornografik materiallar, etnik va diniy adovatni qo'zg'atadigan materiallar va boshqalar), Shuningdek, turli xil tizimlarning ishlashiga kompyuter tarmoqlari orqali zararli oqibatga olib keladigan darajada aralashish kiradi.

Xulosa o'rnida XXI asrda texnologiyalarning tezkor rivojlanishi oqibatida jinoyatlarning ham yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Bugungi kunda ildamlik bilan rivojlanayotgan jinoyat turi bo'lgan kiberjinoyatlar butun dunyo bo'ylab tarqalayotgan transmilliy tahdidga aylandi.

Mazkur jinoyat turi to'siq va chegaralarni bilmaydi. Yoshi, kelib chiqishi, yashash joyidan qat'i nazar, har kim kiberjinoyatlar qurboni bo'lishi mumkin. Onlayn-jinoyatlarning transmilliyligi, miqyosi hamda eksteritorial raqamli dalillarning mavjudligi kiberjinoyatlarni tergov qilishda mutaxassislardan maxsus bilimlarni talab qiladi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishni qiyinlashtiradigan ko'plab texnik muammolar

mavjud. Kiberjinoyatchini, ya'ni kiberjinoyatchilik uchun kim javobgar ekanligini yoki kiberjinoyatchilik nima yordamida sodir etilganligini aniqlash bunday muammolarning bir misoli.

Muhimi shundaki, internetga ulangan har qanday kompyuter internetga ulangan har qanday boshqa kompyuter bilan o'zaro aloqa qilishi mumkin. Odatda, foydalanuvchilar ushbu kompyuter boshqa kompyuterga ulanganda kompyuterning umumiy IP-manzilini ko'rishadi. Biroq jinoyatchi o'z IP-manzilini yashirishning yoki hattoki uni boshqa bironing IP-manziliga almashtirishning ko'plab usullariga ega. Bundan tashqari, jinoyatchilar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan aniqlanmaslik uchun turli xil vositalardan foydalanishlari mumkin, buning uchun ular kirish imkoniyatini qiyinlashtirishi yoki darknet yordamida saytlarni yashirishi mumkin.

References:

1. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факультети. – 2009. Б. 66-69.*
2. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.*
3. *Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015 й. Б. 34-40.*
4. *Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24*
5. *Б.Б.Муродов. Предварительное следствие в органах внутренних дел. Учебник. Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. 395 Б.*
6. *Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга ҳилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10-сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.*
7. *Ш.Ш.Суюнов. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 йил <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019653> Б. 45-48.*
8. *Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019766> Б. 60-62.*
9. *Ш.Ш.Суюнов. Some aspects of qualifying drug-related crimes. Корея Республикасининг “Digital Fashion Conference” журнали 5.10.2022 йил Б. 13-15*
10. *А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда*

жиноят ишени тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

11. *А.Т.Аширбоев.* Жиноят ишени тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперт-криминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар **мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.**

12. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. – 95-98 б.

13. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг бида туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини содир этиш изларининг юзага келиш механизмларининг ўзига хос жиҳатлари. Сиёсатшунослик, ҳуқуқ ва халқаро муносабатлар журнали. 2023 йил.

14. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳнинг бида туриб ёлғон кўрсатув бериши сабаблари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.

15. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳ ва жабрланувчини сўроқ қилишнинг тактик жиҳатлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2022 г.

16. *А.Й.Абдуллаев.* Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятининг сабаблари ва уни содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар (Хоразм вилояти мисолида). Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.